TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

ATOYEV SUHROB G‘AFUROVICH

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATI YORDAMIDA HARAKATDAGI OBYEKTLARNI ANIQLASH VA KUZATISH ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 004.93

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

ATOYEV SUHROB G'AFUROVICH

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATI YORDAMIDA HARAKATDAGI OBYEKTLARNI ANIQLASH VA KUZATISH ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4170 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nishanov Axram Xasanovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Raxmatullayev Marat Alimovich** texnika fanlari doktori, professor
	Boboyev Lochinbek Boymurotovich texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “28” mart da soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (341 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “14” mart kuni tarqatildi.
(2025-yil “14” mart dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

Dj.B. Sultanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda sohalardagi turli xil muammolarni chuqur oʻqitishga asoslangan modellar va algoritmlar asosida samarali hal qilish asosiy masalalardan biri boʻlib kelmoqda. Shular qatorida tasvirlar yoki tasvirlar ketma-ketligiga raqamli ishlov berishni ham keltirish mumkin. Tasvirlarga ishlov berish, tasvirlardan muhim obyektlarni aniqlash va ajratish, chuqur oʻqitish algoritmlari asosida avtomatik tanib olish usullarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida bunday masalalarni yechish bilan ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorlikni oshirish bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda, tez rivojlanayotgan texnologiyalar bilan bir qatorda, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) tobora ommalashib bormoqda. Bunga asosiy sabab qilib ushbu vositalarning ixchamligi va keng imkoniyatlarga egaligini keltirib oʻtish mumkin. Umuman olganda, UUAlari yordamida obyektlarni tanib olish va ularning harakatini kuzatib borish turli sohalar uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Bunday apparatlar kuzatuv tizimlari, qidiruv-qutqaruv, harbiy, atrof-muhit monitoringi, infratuzilmani tekshirish, kinosanoati, qishloq xoʻjaligi va geodeziya kabi sohalarda samarali monitoring, tahlil va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. UUAlarning imkoniyatlarini hamda tasvirlarda obyektlarni tanib olish va kuzatish algoritmlarini birlashtirish orqali koʻplab sohalarda, xavfsizlik va resurslarni boshqarish samaradorliklarini oshirish mumkin.

Respublikamizda sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish va ularni tasvirlardan obyektlarni aniqlash sohasiga joriy qilish, tasvirlardan obyektlarni aniqlovchi va sinflashtiruvchi dasturiy vositalarni rivojlantirish hamda soha boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini qoʻllab quvvatlash davlat darajasida amalga oshirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli Oʻzbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonida, jumladan “… axborot texnologiyalari sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish ... istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarini amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qoʻllab-quvvatlash ... raqamli texnologiyalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ragʻbatlantirish, ularni tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish ...”[1] kabi sohaga doir bir qancha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, jahonda hamda yurtimizda ushbu sohalar boʻyicha olib borilayotgan ilgʻor va zamonaviy texnologiyalar asosida koʻplab ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish, ular asosida ishlab chiqarilayotgan aqlli tizimlarni oʻrganish zarur. Shuningdek, UUAlari yordamida obyektlarni tanib olish va ularning harakatini kuzatib borishning neyron tarmoqlariga asoslangan modelini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli Oʻzbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi 658-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishida olingan natijalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tasvirlarga raqamli ishlov berish algoritmlarini ishlab chiqish, tasvirlardagi obyektlarni aniqlash va sinflashtirish usullari va algoritmlari boʻyicha J. Redmon, Yu.I. Juravlev, R. Golsales, S. Divvala, J. Xing, A. Farhadi, J. Cao A. Fawzi, Liang M., Z. Wang H., Ciresan Dan, K.R. Kwon, D.H. Wu, G. Park kabi xorijiy olimlarining ilmiy ishlari tadqiq etilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda tasvirlarga ishlov berish va timsollarni tanib olishning nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M. Komilov, Sh.X. Fozilov, A.X. Nishanov, X.N. Zaynidinov, N.S. Mamatov, M.X. Xudayberdiyev va boshqalar oʻzlarining katta hissalarini qoʻshganlar.

Hozirgi kunda tasvirlarga ishlov berish, ulardan muhim obyektlarni tanib olish va tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan aqlli tizimlar yaratishning mavjud usul va algoritmlarini takomillashtirish, boʻyicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Biroq, ushbu sohada dron texnologiyasi yordamida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish masalalari hozirgi kungacha qoniqarli darajada yechilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 20/1-1278 – “Ichki ishlar vazirligiga tegishli hudud, bino va inshootlarni texnik vositalar yordamida qoʻriqlash” (2021-2023) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Uchuvchisiz uchish apparati yordamida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatishning neyron tarmoq modeliga asoslangan gibrid algoritmi hamda dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma’lumotlarni sun’iy koʻpaytirish usullari orqali ma’lumotlar toʻplamini shakllantirish;

qoldiq blokini ishlab chiqish orqali obyektlarni aniqlashning YOLO neyron tarmoq modelini takomillashtirish;

neyron tarmoqlarida yashirin qatlamlar soni oshgani sari yuzaga keladigan o‘qitish xatoligini bartaraf etish usulini ishlab chiqish;

uchuvchisiz uchish apparati yordamida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish uchun takomillashtirilgan YOLO modeli hamda Kalman filtriga asoslangan gibrid algoritmni ishlab chiqish;

taklif qilingan gibrid algoritm asosida obyektni aniqlash va kuzatish dasturiy majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish jarayoni qaralgan.

Tadqiqotning predmetini harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish usullari, algoritmlari va dasturiy majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishi tadqiqotlari doirasida tasvirlarga dastlabki ishlov berish usullaridan, ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishda ma’lumotlarni sun’iy ko‘paytirish usullaridan, tasvirlar ketma-ketligidan harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatishda chuqur o‘qitish algoritmlariga asoslangan neyron tarmoq modellaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoldiq blokini ishlab chiqish orqali obyektlarni aniqlashning neyron tarmoqlariga asoslangan YOLO modeli takomillashtirilgan;

gradient oqimini kuchaytirish hamda to‘yinganlik effektlarini kamaytirish orqali neyron tarmoqlarida yashirin qatlamlar soni oshgani sari yuzaga keladigan o‘qitish xatoligini bartaraf etish usuli ishlab chiqilgan;

uchuvchisiz uchish apparati yordamida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish uchun takomillashtirilgan YOLO modeli hamda Kalman filtriga asoslangan gibrid algoritm ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan model va gibrid algoritm asosida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish uchun kross-platformali desktop ilovasining modullari va funksional strukturasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

harakatlanuvchi obyektlarning 6 ta sinfiga tegishli 12000 ta tasvirdan tashkil topgan ma’lumotlar to‘plami yaratilgan.

UUA yordamida harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va kuzatishning chuqur o‘qitishga asoslangan gibrid algoritmni ishlab chiqildi.

UUA yordamida harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va kuzatishni amalga oshiruvchi dasturiy majmuaning funksional strukturasi hamda dasturlararo muloqot interfeysi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tasvirlar ketma-ketligidan harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatishning neyron tarmoq modeli ishlab chiqilganligi, dissertatsiyada taklif qilingan model, algoritm va dasturiy vositalarning bosma nashrlar va xalqaro ilmiy konferensiyalar ma’ruzalaridagi aprobatsiyasi, tajribaviy tadqiqotlar va yaratilgan dasturiy vositalarning amaliyotga tadbiq etilganligini asoslovchi guvohnomalar hamda tadqiqot natijalarining joriy etilganlik dalolatnomalari bilan tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasvirlar ketma-ketligidan harakatdagi obyektlarni aniqlash va sinflashtirishning neyron tarmoq modeli, chuqur oʻqitish algoritmlari uchun harakatlanuvchi obyektlar maʼlumotlar toʻplami, maʼlumotlar toʻplamini sunʼiy koʻpaytirish usullarining dinamik tasvirlardan muhim obyektlarni aniqlashga yoʻnaltirilgan tadqiqotlarning istiqbolli rivojlanishiga qoʻshadigan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan dasturiy majmua uchuvchisiz uchish apparati yoki qoʻriqlanadigan hududlarda oʻrnatilgan video kuzatuv apparatlari yordamida harakatdagi turli xil obyektlarni tanib olish va ularni kuzatish ishlarida qoʻllanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model va gibrid algoritm asosida yaratilgan “ODDA 1.1” harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatishning kross-platformali desktop ilovasi asosida:

ilmiy tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish dasturiy majmuasini Navoiy viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markaziga tatbiq etilishi natijasida, viloyatda jinoyatchilarni aniqlash va qidirishga ketadigan vaqt oʻrtacha 16 foizga qisqardi (Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 27-maydagi 33-8/3472-sonli maʼlumotnomasi). Harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va ularni maʼlum bir joyga kuzatib borishning aniqlik darajasi 90-93% ni tashkil qildi;

tadqiqot ishi doirasida taklif etilgan model va algoritmlar asosida olingan ilmiy-amaliy natijalar Ichki ishlar vazirligi Qorovul qoʻshinlari qoʻmondonligi Texnik qoʻriqlash vositalarini joriy etish boʻlimiga joriy etildi (Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 27-maydagi 33-8/3472-sonli maʼlumotnomasi). Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan dasturiy vosita uchuvchisiz uchish apparati yoki qoʻriqlanadigan hududlarda oʻrnatilgan video kuzatuv apparatlari yordamida harakatdagi turli xil obyektlarni tanib olish va ularni kuzatish ishlarida qoʻllanilmoqda. Harakatdagi obyektlarni tanib olish va ularni kuzatib borish ishlarining aniqlik darajalari 89-92%ni tashkil etmoqda. Bu kuzatilgan obyekt maʼlumotlarini tahlil qilish uchun ketadigan vaqtni oʻrtacha 9%ga qisqartirish imkonini berdi;

dissertatsiya doirasida taklif etilgan model va gibrid algoritm asosida yaratilgan dasturiy majmuasi “IT WEBMIN” masʼuliyati cheklangan jamiyati tomonidan foydalanish uchun qabul qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 27-maydagi 33-8/3472-sonli maʼlumotnomasi). Dasturiy majmua koʻcha va binolarda oʻrnatilgan video kuzatuv apparatlari yordamida harakatdagi turli xil obyektlarni tanib olish va ularni kuzatish vazifalarini bajarmoqda. Ishlab chiqilgan dasturiy vosita harakatdagi obyektlarni 90-95% aniqlikda tanib olishni amalga oshirmoqda. Bu kuzatilgan obyekt maʼlumotlarini tahlil qilish uchun ketadigan vaqtni oʻrtacha 10%ga qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan 7 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, 4 ta xorijiy, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan hamda 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinish holati, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “UUA yordamida obyektni tanib olish va kuzatish tushunchasi” deb nomlangan birinchi bobi 4 ta paragrafdan iborat bo‘lib, unda UUAlari haqida umumiy tushunchalar va ularning qo‘llanish sohalari, obyektni tanib olishning chuqur o‘qitishga asoslangan usul va algoritmlari tahlili, harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va kuzatish tizimlarining qo‘llanish sohalari hamda tadqiqot masalasining qo‘yilishi keltirib o‘tilgan. Harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va kuzatish bo‘yicha chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlar bo‘yicha xorijiy davlatlar va Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari atroflicha tahlil qilingan va ushbu tahlillar natijasida obyektlarni tanib olish uchun yechiladigan masalalar ketma-ketligi tanlab olingan.

Ushbu bobning 1.2-paragrafida obyektlarni tanib olishning chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlari tahlil qilingan. Chuqur o‘qitishga asoslangan CNN (Convolutsion Neural Network) R-FCN (Region-based Fully Convolutional Networks), Fast R-CNN, Faster R-CNN, SSD (Single Shot MultiBox Detector) va YOLO (You Only Look Once) kabi neyron tarmoq arxitekturalari so‘nggi yillarda yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda.

Ikkinchi bobda obyektni aniqlash va kuzatish jarayoni tasvirlangan, obyektni aniqlash va kuzatishning bir nechta modellari va algoritmlari ko‘rib chiqiladi. Obyektni aniqlash muammosini hal qilishda asosiy rol o‘ynaydigan tasvirni oldindan qayta ishlashning bir qator yondashuvlari va usullari o‘rganildi. Ular asosida obyektni aniqlash samaradorligini oshirish uchun sun’iy ko‘paytirish usullari yordamida tasvirlar soni oshirildi.

Tasvir o‘lchamini o‘zgartirish rasmning nisbatlarini saqlab qolgan holda uning hajmini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Faraz qilaylik, $I(x, y)$asl tasvir M x N o‘lchamiga ega va biz uning o‘lchamini yangi P x Q o‘lchamiga o‘zgartirmoqchimiz. O‘lchamini o‘zgartirish uchun matematik tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$R_{\mathrm{I}} = Res(I(x, y), P, Q)$$

bunda R_{I} - o‘lchami o‘zgartirilgan tasvir, $Res()$ - asl tasvirni kerakli P x Q o‘lchamga o‘zgartiruvchi funksiya.

Tasvirdan shovqinni olib tashlash texnikasi tasvirdagi shovqinni kamaytirishga qaratilgan. Shovqinni olib tashlashning keng tarqalgan usullaridan biri Gauss filtrlash bo‘lib, u tasvirga Gauss yadrosini qo‘llaydi. Gauss filtrlash tenglamasi:

$$F_{\mathrm{I}} = Convolve(I(x, y), GaussianKernel)$$

bunda F_{I} filtrlangan tasvir, $Convolve()$ tasvir va Gauss yadrosi o‘rtasidagi konvolyutsiya operatsiyasini ifodalaydi.

Rasmni normallashtirish texnikasi tasvirning piksel qiymatlarini standartlashtirishga qaratilgan. Keng tarqalgan usullardan biri piksel qiymatlarini kerakli diapazonga o‘lchaydigan min-max normallashtirishdir. Min-max normalizatsiya tenglamasi quyidagicha:

$$N_{\mathrm{I}} = (I(x, y) - min(I(x, y)))\ /\ (max(I(x, y)) - min(I(x, y)))$$

bu yerda N_{I} normalangan tasvir, $min(I(x, y))$ va $max(I(x, y))$ mos ravishda tasvirdagi minimal va maksimal piksel qiymatlarini ifodalaydi.

Tasvirni aylantirish jarayoni transformatsiya matritsalari yordamida aniqlanishi mumkin. Aylanish uchun 2D aylanish matritsasi ishlatiladi. Tasvirni θ burchakka aylantirish uchun aylanish tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$R_{\mathrm{I}} = Rot(I(x, y), \theta)$$

bunda R_{I} - aylantirilgan tasvir.

Ushbu tadqiqotda tasvir ketma-ketligida obyektni tanib olish uchun YOLO modelidan foydalanildi. YOLO modelidagi birinchi konseptsiya qoldiq bloklardir. Arxitekturada ular ma’lum bir tasvirda panjara yaratish uchun 7 × 7 qoldiq bloklardan foydalanilgan. Ushbu panjaralarning har biri markaziy nuqtalar vazifasini bajaradi va bu panjaralarning har biri uchun ma’lum bir bashorat mos ravishda amalga oshiriladi. Panjara katakchasidagi har bir chegaraviy ramka uchun sigmoid funksiya yordamida taxmin qilingan chegara koordinatalari (x, y, w, h) hisoblanadi:

$$b_x = \sigma(t_x) + c_x,$$

$$b_y = \sigma(t_y) + c_y,$$

$$b_w = p_w\, e^{t_w},$$

$$b_h = p_h\, e^{t_h}$$

bunda b_x, b_y - bashorat qilingan markaz koordinatalari; b_w, b_h - bashorat qilingan kenglik va balandlik; t_x, t_y, t_w, t_h - tarmoq prognozlari va c_x, c_y, p_w, p_h - chegaraviy ramkaning parametrlari.

Panjara katakchasidagi har bir chegaraviy ramka obyektni o‘z ichiga olish ehtimolini ko‘rsatadigan ishonch darajasini bashorat qiladi. Ishonch darajasi sigmoid funksiya yordamida hisoblanadi:

$$Conf = \sigma(t_{conf})$$

Har bir katakcha softmax funksiyasidan foydalangan holda P_C sinf ehtimolini bashorat qiladi:

$$P_C = softmax(t_C)$$

bunda t_C - ishonch uchun tarmoq prognozi.

YOLO modelining yakuniy natijasi har bir katakcha uchun taxmin qilingan chegara koordinatalarini, ishonch darajalarini va sinf ehtimolini o‘z ichiga olgan shakl tenzoridir $(S, S, (B5 + P_C))$. Turli baholash ko‘rsatkichlarining asosiy mexanikasi har xil bo‘lishi mumkinligi sababli, ushbu ko‘rsatkichlarning har biri nimani anglatishini va ular qanday ma’lumotlarni yetkazishga harakat qilayotganini tushunish taqqoslash uchun juda muhimdir. Ushbu ko‘rsatkichlarga misollar: aniqlik, eslab qolish, o‘rtacha aniqlik (mAP), birlashma ustidagi kesishma (IoU) va markaz joylashuv xatoligi (CLE).

Taklif etilgan obyektni aniqlash usulini baholash uchun biz aniqlik ko‘rsatkichidan foydalanamiz, u barcha aniqlanishlar orasida haqiqiy ijobiylarning nisbatini o‘lchaydi:

$$\text{Precision} = \frac{TP}{TP + FP}$$

bunda TP - to‘g‘ri pozitiv (aniqlangan obyektlar), FP - noto‘g‘ri pozitiv (noto‘g‘ri aniqlangan obyektlar).

Qayta tiklash ko‘rsatkichi barcha haqiqiy obyektlardan aniqlangan haqiqiy ijobiylarning nisbatini o‘lchaydi:

$$\text{Recall} = \frac{TP}{TP + FN}$$

bunda FN - noto‘g‘ri negativlar (o‘tkazib yuborilgan obyektlar).

O‘rtacha aniqlik (AP) obyektni aniqlash algoritmlarini baholash uchun keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichdir. AP ko‘pincha aniqlik egri chiziqlari va egri chiziq ostidagi maydon yordamida hisoblanadi. O‘rtacha AP (mAP) bir nechta obyekt sinflari uchun hisoblangan AP qiymatlarining o‘rtachasidir:

$$\text{mAP} = \frac{1}{n}\sum_{k=1}^{k=n} AP_k$$

bu yerda AP_k - k sinfining o‘rtacha aniqligi, n - sinflar soni.

Mazkur tadqiqot ishida obyektni kuzatish tizimini baholash uchun CLE ko‘rsatkichidan foydalanildi. CLE obyektning taxminiy markazi va har bir tasvir ramkasidagi haqiqiy markazi o‘rtasidagi Evklid masofasi sifatida aniqlanadi:

$$CLE = \left\| O_k^E - O_k^{GT} \right\|$$

bu yerda O_k^E va O_k^{GT} obyektning taxminiy va haqiqiy markazlari.

Uchinchi bobda harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash va kuzatishning gibrid algoritmi hamda dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan. Ushbu bobda quyidagilar keltirilgan:

1. Tasvir yoki tasvir ketma-ketligidagi bir nechta obyektlarni aniqlay oladigan va ularning chegaraviy ramka koordinatalarini sinf ehtimollari bilan ta’minlaydigan neyron tarmoqlariga asoslangan obyektni aniqlashning takomillashtirilgan YOLO modeli taklif etildi. Ushbu tadqiqot ishida YOLO neyron tarmoq modelining 3-versiyasi oddiy blok o‘rniga qoldiq blokdan foydalangan holda takomillashtirildi. Bundan tashqari, Mish faollashtirish funksiyasi obyektni aniqlash tarmog‘ining aniqligini oshirish uchun ishlatildi.

2. Takomillashtirilgan YOLO va Kalman filtriga asoslangan harakatdagi obyektni aniqlash va kuzatishning gibrid algoritmi taqdim etildi. U tasvir ketma-ketligidagi bir nechta obyektlarni aniqlash va kuzatish imkonini beradi. Obyektni kuzatish usuli uchta moduldan iborat: ketma-ketlikning birinchi freymidagi obyektni tanlash moduli, obyektni aniqlash moduli va Kalman filtr moduli.



1-rasm. Takomillashtirilgan YOLO modelining arxitekturasi

1-rasmda ko‘rsatilganidek, aniqlash moduli 53 qatlamdan iborat bo‘lib, natijalarni to‘liq konvolyutsion 106 chuqur tarmoq qatlamiga birlashtirgan. Takomillashtirilgan YOLO modeli o‘zining asosi sifatida chuqur CNNdan foydalanadi. Magistral tarmoq obyektni aniqlash uchun zarur bo‘lgan past darajali va yuqori darajali xususiyatlarni suratga olgan holda kirish tasviridan boy xususiyatlarni taqdim etadi.

2-rasmda keltirilganidek, obyektni aniqlash jarayoni tasvirni S × S panjarasiga bo‘lishdan boshlanadi (uch xil shkalada S 13, 26 va 52 ga teng). Har bir katakcha chegaralovchi ramkalarni va ular bilan bog'liq sinf ehtimolini bashorat qilish uchun javobgardir. Har bir katakcha ichida takomillashtirilgan YOLO modeli turli o'lcham va shakldagi obyektlarni aniqlash uchun turli o'lchamdagi va tomonlar nisbatidagi chegaralovchi ramkalardan foydalanadi.



2-rasm. YOLO modeli yordamida obyektni aniqlash jarayoni. A: S×S panjarani generatsiyalash, B: chegaraviy ramkalarni yaratish, C: chegaralovchi ramkani bashorat qilish

Takomillashtirilgan YOLO modeli turli masshtablarda bir nechta bashorat qilish qatlamlariga ega. Har bir bashorat qatlami turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun javobgardir. Bashorat qatlamlari o'zlarining tegishli shkalalarida chegaralangan ramkalar, sinf ehtimollari va ishonch ballari uchun bashorat qiladi.



3-rasm. Oddiy konvolyutsion blok va qoldiq blok

Odatda, chuqur neyron tarmoqlarni o'qitish qiyin jarayon hisoblanadi. Chuqurlik oshgani sayin, ba'zida tarmoq aniqligi to'yingan bo'ladi, bu esa yuqori o'qitish xatoligi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun qoldiq bloki joriy etildi. Oddiy konvolyutsion bloki va qoldiq blok o‘rtasidagi asosiy farq 3-rasmda ko‘rsatilganidek, yashirin ulanishning qo‘shilishi hisoblanadi. Yashirin ulanish kirishni chuqurroq qatlamlarga yetib borishi ta’minlab beradi. Qolaversa, tarmoq aniqligini maksimal darajada oshirish maqsadida Mish faollashtirish funksiyasidan foydalanildi:

$$f(x) = x \tanh(\ln(1 + e^x))$$

Oxirgi bosqichda YOLO modeli har bir chegaralovchi ramka uchun sinf ehtimolini bashorat qiladi. Model oldindan belgilangan obyekt sinflari to‘plamiga sinf ehtimolini belgilaydi. Sinf ehtimolliklari modelning ma’lum bir sinf obyekti chegaralangan ramka ichida mavjudligiga ishonchini ifodalaydi.

Quyidagi tenglamalardan foydalanib, takomillashtirilgan YOLO modelida gradient oqimini oshirishga va to‘yinganlik effektlarini kamaytirishga erishildi. Bu o‘z navbatida, neyron tarmoqlarida yashirin qatlamlar soni oshgani sari yuzaga keladigan o‘qitish xatoligini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Og‘irlikni initsializatsiyalashdan foydalanishdan maqsad, har bir qatlam chiqishidagi farqni kirishlar farqi bilan taxminan bir xil saqlashdir, bu esa gradientlarning yo‘qolishining oldini olishga yordam beradi.

$$W \sim N(0, \sqrt{\frac{2}{n_{in}}})$$

bunda W – og‘irliklar, N - normal taqsimlanish, n_{in} - qatlamdagi kirish neyronlar soni.

Tarmoqni normallashtirish o‘qitish jarayonini barqarorlashtiradi va to‘yinganlikning oldini olishga yordam beradi va bu jarayon quyidagi tenglama orqali amalga oshiriladi:

$$\hat{x} = \frac{x - \mu}{\sqrt{\sigma^2 + \epsilon}}$$

bu yerda x - qatlamga kirish (masalan, oldingi qatlamdan chiqish), μ - tarmoqning o‘rtacha qiymati, σ^2- tarmoq dispersiyasi, ϵ - konstanta, $\hat{x}$- normallashtirilgan chiqish.

Neyron tarmoqlarda o‘qitish paytida gradientlarning (g) haddan tashqari katta bo‘lishini oldini olish uchun gradient kesish usulidan foydalanildi:

$$g = \begin{cases} agar \quad \|g\| \leq \text{bo}'\text{sag}'\text{a}, & g \\ aks\ holda, & \frac{g}{\|g\|} \times \text{bo}'\text{sag}'\text{a} \end{cases}$$

Obyektni kuzatishning asosiy maqsadi tasvir ketma-ketligining har bir freymida uning aniq o‘rnini aniqlash orqali vaqt o‘tishi bilan obyekt trayektoriyasini yaratishdir. 4-rasmda ko‘rsatilganidek, obyektni kuzatish usuli uchta moduldan iborat: tasvir ketma-ketligining birinchi freymidagi obyektni tanlash moduli, obyektni aniqlash moduli va Kalman filtr moduli. Obyektning birinchi kadrdagi o‘rni qidiruv oynasining o‘lchami, kengligi, uzunligini o‘z ichiga olgan ishga tushirish parametrlaridan iborat tanlov moduli tomonidan tanlanadi. Obyektni aniqlash moduli 3.1-bo‘limda tasvirlangan. Obyekt aniqlangandan so‘ng, takomillashtirilgan YOLO modeli mos keladigan chegara ramkasini yaratadi.

Obyektning tasvir ketma-ketligining har bir freymidagi o‘rnini baholash uchun bu ishda Kalman filtridan foydalaniladi. Kalman filtrining kirish parametrlari obyektning k vaqtdagi tasvirdagi holati, obyektning o‘lchami, shuningdek, obyektni qidirish oynasining kengligi va uzunligi bo‘lib, ular tasvir ketma-ketligi davomida obyektning harakatchanligi tufayli o‘zgaradi.



4-rasm. Harakatdagi obyektni kuzatish gibrid algoritmining blok-sxemasi

Kalman filtrining holat vektori va o‘lchov vektori kirish parametrlari bilan ifodalanishi mumkin. Holat vektori mos ravishda t_k vaqtidagi dastlabki pozitsiyadan (x_k, y_k), qidiruv oynasining kengligi W_k va uzunligi L_k va obyektning massa markazidan (x_c, y_c) iborat. Ushbu vektor tomonidan taqdim etiladi:

$$s_k = (x_k, y_k, W_k, L_k, x_c, y_c)$$

O‘lchov vektori obyektni qidirish oynasining t_k vaqtidagi boshlang‘ich holati, kengligi va uzunligidan iborat bo‘lib, bu vektor quyidagicha yozilishi mumkin:

$$z_k = (x_k, y_k, W_k, L_k)$$

Diskret jarayon yordamida Kalman filtri holatni baholaydi. Bu holat chiziqli tenglama bilan modellashtiriladi:

$$s_k = A\, s_{k-1} + w_{k-1}$$

bunda A - o‘tish matritsasi, w_k - jarayon shovqini. O‘lchov modeli esa quyidagicha hisoblanadi:

$$z_k = H\, s_k + v_k$$

bunda H - o‘lchov matritsasi, v_k - o‘lchov shovqini.

Bashorat qilish bosqichida Kalman filtri oldingi holat va tizimning dinamik modeli asosida obyektning kelajakdagi holatini baholaydi. Obyektning k+1 vaqtidagi taxminiy holati quyidagicha hisoblanadi:

$$x_{k+1|k} = A_k x_{k|k} + B_k u_k$$

bunda x_{k+1} obyektning k+1 vaqtidagi taxminiy holati, B - obyekt holatiga har qanday tashqi ta'sirlarni ifodalovchi boshqaruv kirish matritsasi, u - diskretlashtirilgan jarayon shovqinini ifodalaydi. k vaqtdagi holatning bashorat qilingan kovariatsiya matritsasi P quyidagicha hisoblanadi:

$$P_{k+1|k} = A_k P_{k|k} A_k^T + G_k Q_k G_k^T$$

bunda G - jarayon shovqinining kuchayishi matritsasi, Q - kovariatsiya.

Yangilash bosqichida Kalman filtri sensorlardan olingan o‘lchovlar asosida davlat bahosini yangilaydi. z_k bilan belgilangan o‘lchov qoldig‘i quyidagicha hisoblanadi:

$$z_{k+1|k} = H_{k+1} x_{k+1|k}$$

Takroriy ravishda bashorat qilish va yangilash bosqichlarini bajarish orqali Kalman filtri obyekt holatini doimiy ravishda baholaydi va yangilaydi, shovqin va noaniqliklar mavjud bo‘lganda ham aniq kuzatuvni ta’minlaydi.

Obyektlarni aniqlashning eng muhim vazifalaridan biri ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishdir. Ushbu tadqiqotda obyektni aniqlash muammosini hal qilish uchun 6 turdagi obyektlar 6 ta sinf sifatida tanlangan. Ushbu sinflarning ma'lumotlar to‘plami 12.000 rangli tasvirlardan, har bir sinf uchun 2.000 ta tasvirdan iborat. Bu ma’lumotlar to‘plami COCO ma’lumotlar to‘plami va jamoamiz tomonidan to‘plangan rasmlardan iborat. Ushbu ma’lumotlar to‘plamidan 80% (9,600) tizimni o‘qitish uchun ishlatilgan va qolgan 20% (2,400) test uchun ishlatilgan. Ushbu tadqiqot ishida Intel(R) Core(TM) i7-8800 protsessorli 3,80 gigagertsli, operativ xotira: 32 GB, SSD: 512, HDD: 1TB, operatsion tizim: Windows 10, 64-bit parametrlarga ega kompyuterdan foydalanildi. Taklif etilgan gibrid algoritmni amalga oshirish uchun Python dasturlash tilidan foydalanildi. ODDA 1.1 desktop ilovasini ishlab chiqish uchun esa Electron.Js freymvorki hamda JavaScript dasturlash tilidan foydalanildi.

Obyektni aniqlash va kuzatish tizimining funksional tuzilishi 5-rasmda keltirilgan. Dastlabki qadamda ma’lumotlarni qaytash ishlash uchun UUA yordamida olingan tasvirlar ketma-ketligi Raspberry Pi 4 mikrokontrolleriga uzatiladi. Qayta ishlangan ma’lumotlar yerdagi boshqaruv qurilmasida (GCS) o‘rnatilgan dasturiy ta’minotga yuboriladi. Shundan so‘ng, “Image Processing”, “Video Processing” va “Camera Processing” modullaridan biri tanlanib, tasvirlar ketma-ketligida obyektni aniqlash va kuzatish jarayoni amalga oshiriladi. Olingan natijalar esa foydalanuvchi tomonidan tahlil qilish uchun ma’lumotlar bazasida saqlanadi.



5-rasm. Obyektni aniqlash va kuzatish tizimining funksional tuzilishi



6-rasm. Dasturiy ta’minot arxitekturasi

Ishlab chiqilgan kross-platformali desktop ilovasi real-vaqt rejimida UUA yordamida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish uchun takomillashtirilgan YOLO modeli va Kalman filtridan foydalanadi. Ushbu desktop ilovasining umumiy arxitekturasi 6-rasmda keltirilgan. Ishlab chiqilgan dasturiy majmua “Object Detection Desktop Application (ODDA 1.1)” deb nomlanadi. ODDA 1.1

desktop ilovasining “Imag Processing” oynasi 7-rasmda ko‘rsatilgan. Biz tasvirni bu yerga olib tashlashimiz yoki tasvirdagi obyektni aniqlash uchun qurilmadan tasvirni yuklash mumkin.



7-rasm. ODDA 1.1 desktp ilovasining tasvirni qayta ishlash oynasi



8-rasm. ODDA 1.1 desktop ilovasining videotasvirni qayta ishlash oynasi

ODDA 1.1 desktop ilovasining “Video Processing” oynasi 8-rasmda ko‘rsatilgan. Videodagi obyektlarni aniqlash va kuzatish uchun qurilmadan videofayl yuklanadi. ODDA 1.1 desktop ilovasining “Camera processing” oynasi 9-rasmda ko‘rsatilgan. “Kamerani yoqish” tugmasini bosish orqali biz real-vaqt rejimida UUA yordamida obyektni aniqlash va kuzatishga ega bo‘lamiz.



9-rasm. ODDA 1.1 desktop ilovasining real-vaqtda videotasvirni qayta ishlash oynasi

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonligi Texnik qo‘riqlash vositalarini joriy etish bo‘limi hamda Navoiy viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi bilan hamkorlikda olib borildi.

Ishlab chiqilgan model, gibrid algoritm va dasturiy majmuasidan foydalanib, ulardan olingan tadqiqot natijalari 4-bobning asosini tashkil etadi. Kuzatilgan obyekt va UUA o‘rtasidagi masofa d=50 m bo‘lganda, obyektni aniqlashning turli algoritmlari uchun o‘rtacha AP (mAP) natijalari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval.

d=50 m bo‘lganda obyektni aniqlash uchun o‘rtacha AP (mAP)

Sequence	R-CNN	Faster R-CNN	YOLOv3	YOLOv5	YOLOv7	YOLOv9	Proposed YOLO
Human	72.1	80.4	82.4	83.3	85.1	89.5	**90.2**
Drone	64	70.3	75.2	84.2	86.2	88.2	**88.7**
Bird	60.2	63.2	78.3	84.3	88.7	89.2	**88.4**
Dog	71.3	82.5	85.6	86.5	89.6	90.6	**91.2**
Car	70.2	84.2	88.4	88.2	90.3	91.5	**92.7**
Horse	68.1	74.7	80	90.3	91.2	92.5	**92.3**

Obyekt va UUA orasidagi masofa 50 m bo‘lganda, obyektni kuzatish algoritmlari uchun markaz joylashuvi xatoligi (CLE) natijalari 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval.

d=50 m bo‘lganda markaz joylashuvi xatoligi (CLE)

Sequence	MIL	STRUCK	KCF	SORT	GLOM	Proposed
Human	13.2	13.6	11.5	10.3	9.5	**7.5**
Drone	15.6	14.2	12.6	11.5	9.6	**7.4**
Bird	13.7	13.3	12.8	11.7	11.4	**9.6**
Dog	11.4	7.5	8.2	8.2	8.3	**7.5**
Car	11.3	8.3	10.3	9.4	9.5	**6.4**
Horse	12.2	9.6	11.3	11.7	11.6	**8.2**
Average CLE	**12.9**	**11**	**11.1**	**10.5**	**10.9**	**7.7**

XULOSA

Dissertatsiyaning birinchi bobida UUAlari haqida umumiy tushunchalar va ularning qo‘llanish sohalari, obyektni tanib olishning chuqur o‘qitishga asoslangan usul va algoritmlari tahlili, harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish tizimlarining qo‘llanish sohalari hamda tadqiqot masalasining qo‘yilishi keltirib o‘tilgan. Harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatish bo‘yicha chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlar bo‘yicha xorijiy davlatlar va Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari atroflicha tahlil qilingan va ushbu tahlillar natijasida obyektlarni tanib olish uchun yechiladigan masalalar ketma-ketligi tanlab olingan.

Ikkinchi bobda obyektni aniqlash va kuzatish jarayoni tasvirlangan, obyektni aniqlash va kuzatishning bir nechta modellari va algoritmlari ko‘rib chiqildi. Obyektni aniqlash muammosini hal qilishda asosiy rol o‘ynaydigan tasvirni oldindan qayta ishlashning bir qator yondashuvlari va usullari o‘rganildi va ular asosida obyektni aniqlash muammosini hal qilish samaradorligini oshirish uchun amaliy yondashuvlar taklif qilindi.

Ushbu tadqiqot ishida YOLO neyron tarmoq modeli oddiy blok o‘rniga qoldiq blokdan foydalangan holda takomillashtirildi. Bundan tashqari, Mish faollashtirish funksiyasi obyektni aniqlash tarmog‘ining aniqligini oshirish uchun ishlatildi. Gradient oqimini kuchaytirish hamda to‘yinganlik effektlarini kamaytirish orqali neyron tarmoqlarida yashirin qatlamlar soni oshgani sari yuzaga keladigan o‘qitish xatoligini bartaraf etishga erishildi. Takomillashtirilgan YOLO modeli va Kalman filtriga asoslangan obyektni aniqlash va kuzatishning gibrid algoritmi taqdim etildi, u tasvir ketma-ketligidagi bir nechta obyektlarni aniqlash va kuzatish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan gibrid algoritm asosida harakatdagi obyektlarni aniqlash va kuzatishning kross-platformali “ODDA 1.1” nomli desktop ilovasi yaratildi.

Ishlab chiqilgan dasturiy majmua UUA yoki video kuzatuv apparatlari yordamida kuzatilgan obyekt ma’lumotlari ichidan zarurini ajratib olish vazifalarini bajarmoqda. Tajribalar davomida obyektlarni aniqlash va kuzatish tizimi o‘qitishdagi xatolik darajasi, markaz joylashuvi xatoligi va o‘rtacha aniqlik bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot qo‘riqlanadigan hududlarda dronlar yoki o‘rnatilgan videokuzatuv qurilmalari yordamida harakatdagi turli obyektlarni aniqlash va kuzatishda qo‘llanilmoqda. Harakatdagi obyektlarni tanib olish va ularni ma’lum joygacha kuzatib borish ishlarining aniqlik darajalari 90-93%ni tashkil etmoqda. Bu kuzatilgan obyekt ma’lumotlarini tahlil qilish uchun ketadigan vaqtni o‘rtacha 10-15%ga qisqartirish imkonini bergan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.13/30.12.2019.T.07.01 AT TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION TECHNOLOGIES

TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION TECHNOLOGIES NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHWARIZMI

ATOEV SUKHROB GAFUROVICH

ALGORITHMS AND SOFTWARE FOR DETECTION AND TRACKING OF MOVING OBJECTS USING AN UNMANNED AERIAL VEHICLE

05.01.04 – Mathematics and software of computing machines, complexes and computer networks

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON TECHNICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.4.PhD/T4170.

The dissertation has been prepared at Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website (www.tuit.uz) and on the website of "Ziyonet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz.).

Scientific adviser:	**Nishanov Akhram Khasanovich** doctor of technical sciences, professor
Official opponents:	**Rakhmatullaev Marat Alimovich** doctor of technical sciences, professor
	Boboev Lochinbek Boymurotovich PhD in technical sciences
Leading organization:	**Samarkand State University named after Sharof Rashidov**

The defense of dissertation will take place "28" March 2025 y. at 14:00 at the meeting of Scientific council No. DSc.13/30.12.2019.T.07.01 at Tashkent University of Information Technologies (Address: 100084, Tashkent city, Amir Temur street, 108. Ph.: (+99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information resourse centre of Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi (is registered under No.341). (Address: 100084, Tashkent city, Amir Temur street, 108. Ph.: (+99871) 238-64-70).

Abstract of dissertation sent out on "14" March 2025 y.
(mailing report No.20 on "14" March 2025 y.).

M.M. Musaev
Chairman of the scientific council
awarding scientific degrees,
Doctor of technical sciences, professor

E.Sh. Nazirova
Scientific secretary of scientific council
awarding scientific degrees,
Doctor of technical sciences, professor

Dj.B. Sultanov
Chairman of the academic seminar under
the scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of sechnical sciences, docent

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. One of the major challenges today is developing effective solutions to problems across various fields using deep learning-based models and algorithms. A key area of focus is the digital processing of images and image sequences. In particular, significant attention is given to developing methods for image processing, identifying and extracting important objects, and enabling automatic recognition through deep learning techniques. Leveraging artificial intelligence technologies to address these challenges can enhance both economic and social efficiency, making it a critical issue in modern times.

In recent years, unmanned aerial vehicles (UAVs), commonly referred to as drones, have become more efficient and considerably less expensive due to the rapid advancement of technology. In general, object detection with UAVs yields useful information for a range of sectors and uses. In fields like surveillance, search and rescue, environmental monitoring, infrastructure inspection, agriculture, and surveying, it enables effective monitoring, analysis, and decision-making. In many domains, we can improve productivity, security, and resource management by fusing the powers of UAVs with object detection algorithms. This dissertation addresses the need for developing a robust detection and tracking system capable of operating in complex environments.

Wide use of artificial intelligence (AI) technologies and their implementation in the field of object recognition from images, development of software tools for identifying and classifying objects from dynamic images, and support for scientific research in the field are being implemented in our republic at the state level. In particular, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On approval of the Digital Uzbekistan - 2030 strategy and measures for its effective implementation” , including “... conducting fundamental and applied research on priority directions in the field of information technologies ... implementing promising innovative developments and startup projects and supporting their commercialization and technology transfer ... scientific and research work based on digital technologies development and promotion, improvement of their organizational mechanisms...”[2]. To implement these tasks, it is necessary to analyze many scientific research works on the basis of advanced and modern technologies carried out in these fields in the world and in our country, to study the smart systems produced on their basis. It is also important to develop a neural networks based model for object recognition and tracking using UAVs.

The results obtained in this research work will serve to a certain extent in implementing the tasks outlined in the Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4996 dated February 17, 2021 “On measures to create conditions for the accelerated introduction of artificial intelligence technologies”, No. PQ-358 dated October 14, 2024 “On approval of the Strategy for the

[2] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6079 dated October 5, 2020 “On approval of the Digital Uzbekistan - 2030 Strategy and measures for its effective implementation”

development of artificial intelligence technologies until 2030", Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 658 dated November 15, 2022 "On additional measures to regulate the use of unmanned aerial vehicles in the Republic of Uzbekistan", and other regulatory legal acts related to this research field.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic. This research was carried out in accordance with the "Informatization and development of information and communication technologies" priority direction of the development of Science and technology of the Republic of Uzbekistan.

The degree of study of the problem. The scientific works of foreign scientists J. Redmon, Yu.I. Juravlev, R. Golsales, S. Divvala, J. Xing, A. Farhadi, J. Cao A. Fawzi, Liang M., Z. Wang H., Ciresan Dan, K.R. Kwon, D.H. Wu, G. Park and others on the development and improvement of models, methods and algorithms for image processing and object classification and their implementation in practice are noteworthy.

M.M. Kamilov, Sh.Kh. Fazilov, A.Kh. Nishanov, Kh.N. Zaynidinov, N.S. Mamatov, M.Kh. Khudayberdiev and others contributed to the development of the theoretical foundations of object recognition and classification in Uzbekistan.

Until now, most of the research works have been carried out for visual tracking and classification of moving objects using an UAV. Despite the fact that various visual tracking algorithms have been presented with great performance, most of these algorithms are computationally complex and not suitable for object classification in a UAV communication system. Therefore, the problem of developing reliable and efficient methods and algorithms for object detection using a UAV has not been sufficiently studied.

The connection of the dissertation research with the plans of research work of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation research was carried out within the framework of project 20/1-1278 – "Protection of territory, buildings and structures belonging to the Ministry of Internal Affairs using technical facilities" (2021-2023) of the research plan of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

The purpose of the research is to develop a hybrid algorithm and software based on a neural network model for detection and tracking of moving objects using an unmanned aerial vehicle.

Research functions:

formation of an image dataset using artificial data augmentation methods;

improving the YOLO neural network model for the object detection by developing a residual block;

development of a technique to eliminate the training error that occurs as the number of hidden layers increases in neural networks;

development of hybrid algorithm based on improved YOLO model and Kalman filter for detection and tracking of moving objects using the UAV;

